

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti ilmiy ishlar
va innovatsiyalar bo'yicha
prorektori
G. Abdurahmanova

2025 yil

08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit"

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

D A S T U R I

TOSHKENT – 2025

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan ("30" 10 2025 yil 3 -son majlis bayoni).

Ushbu dastur "Buxgalteriya hisobi" kafedrasining 2025 yil "26-sentabr" dagi № 5 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri:



N. Abdusalomova

Tuzuvchilar:

i.f.d., prof. Avlokulov A.Z.

i.f.d., prof. Ochilov I.

PhD., dots. Kozimjonov A.

Taqrizchilar:

A.K. Ibragimov – O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida professori, i.f.d.

N.K. Rizayev – Toshkent kimyo xalqaro universiteti "Bank ishi va buxgalteriya hisobi" kafedrasida professori, i.f.d.

KIRISH

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha maqsadida 2022 yil 28 yanvar kuni "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning "2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni imzolandi Mazkur Farmonning Uchinchi yo'nalishi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" vazifasi belgilab berildi.

Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda buxgalteriya hisobi va auditni to'g'ri yo'lga qo'yish nihoyatda dolzarbdir. Moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar iqtisodiy mohiyatining aniq va tushunarli bo'lishini hamda uning korxonadagi rolini, baholash usullarini va boshqa hisobot ma'lumotlarining bir-biri bilan mutanosibligini ta'minlash muhim vazifalar qatoriga kiradi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchililigini tasdiqlashda auditorlik hisobotlari va xulosalarini sifatli tuzish muhim o'rin tutadi.

Shu sababli, 08.00.08-"Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon dasturini tuzishda mualliflar guruhi yuqorida qayd etilgan talablardan kelib chiqildi. Dastur talabgorlarning buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning nazariy va amaliy jihatlari o'ld bilimlarini atroflicha to'g'ri baholash imkonini beradi.

Dastur 08.00.08-"Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihonlarga tayyorlanish va uni topshirish uchun mo'ljallangan.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. Strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so'm va 11,7 mlrd dollar ajratiladi.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning qaysi modelini tanlamasin mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligidagi mavqei va o'zni uning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Bu o'rinda sanoatni rivojlantirish muammolarini ilmiy asosda hal eta oladigan ilmiy pedagogik kadrlarning o'zni va ishtiroki muhimdir.

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi”ga asoslanib mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko’tarish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Dasturda qo’yilgan mavzu va masalalar “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” ixtisosligi bo’yicha talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning echimlarini topish bo’yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Yo’nalish bo’yicha malakaviy imtihon topshiruvchilar uchun mo’ljallangan ushbu dasturining asosiy maqsadi — talabgorlarning buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohasidagi nazariy bilimlari hamda amaliy ko’nikmalarini chuqurlashtirish, ularning zamonaviy moliyaviy boshqaruv, hisob siyosati, xalqaro standartlar (IFRS) va audit metodologiyasini tahlil qilish hamda amalda qo’llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Dastur quyidagi vazifalarni o’z ichiga oladi:

Moliyaviy hisobotlarning shakllanishi, tahlili va ularning ishonchliligini baholashni o’rganish;

Buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro me’yoriy asoslarini chuqur tahlil qilish;

Audit jarayonlarini tashkil etish, ichki nazorat tizimini baholash va audit dalillarini to’plash ko’nikmasini shakllantirish;

Korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilish, moliyaviy ko’rsatkichlar asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish;

Hisob-kitoblarda zamonaviy raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirish;

Ilmiy yondashuv asosida iqtisodiy tahlilning analitik modellarini tuzish va ularning natijalarini iqtisodiy qarorlar qabul qilishda qo’llash.

Malakaviy imtihon topshiruvchining bilimiga, tayyorgarligiga va ko’nikmalariga qo’yiladigan talablar:

- Buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil va auditning asosiy nazariy tushunchalarini chuqur bilish;

- Moliyaviy hisobot shakllari (balans, foyda va zarar hisobotlari, pul oqimlari hisobotlari va boshqalar) tuzish hamda ularni tahlil qila olish;

- Milliy va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (BHXS va IFRS) talablari bilan ishlash, ularni amaliyotda qo’llash;

- Audit jarayonlarini rejalashtirish, dalillarni to’plash, tahlil qilish va xulosalar tuzish ko’nikmalariga ega bo’lish;

- Iqtisodiy tahlil uslublarini, moliyaviy koeffitsientlar, trend va faktor tahlilini qoʻllay olish;
- Moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlarini, shuningdek, elektron buxgalteriya dasturlari (1C, QuickBooks, ERP va boshqalar) bilan ishlashni bilish;
- Raqamli texnologiyalar, Big Data, Data Mining va axborot xavfsizligi asoslarini bilish;
- Tahliliy fikrlash, iqtisodiy muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechim topish malakasiga ega boʻlish.

I BOʻLIM. BUXGALTERIYA HISOBI.

Oʻzbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining islohoti va uning bosqichlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va liberallashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi nazariyasining asoslari.

Xoʻjalik yurituvchi subʼektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni uslubiy asoslarini belgilovchi meʼyoriy hujjatlar. Buxgalteriya hisobining mohiyati va asosiy vazifalari. Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va ularning ahamiyati. Buxgalteriya hisobi obʼektlari va ularni turkumlash. Oʻzbekiston Respublikasida hisob siyosati va uning ahamiyati. Hisob siyosatining oʻrni va uni xalqaro standart talablari asosida takomillashuvi. Oʻzbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari. Buxgalteriya hisobi predmetining zamonaviy taʼrifi. Buxgalteriya hisobi metodi va uning asosiy elementlarining turlicha talqini. Buxgalteriya hisobining kontseptual asoslarini takomillashuvi. Moliyaviy holat toʻgʻrisida (Buxgalteriya balansi)gi hisobot va uning mohiyati, mohiyati hamda takomillashtirish masalalari. MHXS asosida “Hisob siyosati”ni ishlab chiqish.

Buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar (schyotlar) rejasi va uni takomillashtirish yoʻlidagi izlanishlar. Baholash, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tamoyillari. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning maqsadi, vazifalari, turlari va uni qoʻllashdagi muammolar. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya hamda ularni rasmiylashtirishga qoʻyilgan zamonaviy talablar. Buxgalteriya hisobi registrlari va shakllari, ularni takomillashtirish istiqbollari.

Buxgalteriya hisobida moliyaviy hisobot, uning mohiyati va ahamiyati. Moliyaviy hisobotni tuzishning kontseptual asoslari. Hisobot turlari va ularning mazmuni. Zamonaviy boshqaruv tizimida moliyaviy hisobotning tutgan oʻrni, mohiyati va unga qoʻyilgan talablar. Buxgalteriya axborotidan foydalanuvchilarni guruhlashtirish va ularning axborotdan foydalanish yoʻnalishlari. Xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yoʻl ochib berishda buxgalteriya hisobining roli. Fermer xoʻjaliklarida soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini tashkil etish. Kasanachilik ish oʻrinlarini ochgan korxonalarda buxgalteriya hisobining oʻziga

xos jihatlari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Korxonalarni modernizatsiya qilish va texnik qayta jixozlashda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari. Iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarni buxgalteriya hisobining schyotlarida aks ettirish va uni takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni takomillashtirish. Moliyaviy hisob to'g'risida tushuncha va uning asosiy tamoyillari. Boshqaruv hisobi va uning elementlari. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (Yangi tahrirdagi) va unga ayrim sharhlar. Bankrot korxonalarda buxgalteriya hisobi va uning moliyaviy hisobotini tuzish masalalari. Korxonalarning o'zaro birlashishini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirishning xususiyatlari. Konsolidatsiyalashgan (umumlashtirilgan) moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning kontseptual masalalari.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasida buxgalteriya hisobini yuritish xususiyatlari. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarining xalqaro standartlar (MHXS) bilan bog'liqligi.

1.2. Asosiy vositalar hisobi

Asosiy vositalar hisobini tashkil etishda xalqaro standartlar (MHXS-16) ni qo'llash masalalari. Asosiy vositalarning zamonaviy ta'rif, ularni turkumlash va baholashning turlicha talqini. Asosiy vositalarni qabul qilish hisobi va uni takomillashtirish. Amortizatsiya hisoblash usullari va uni qo'llashdagi ayrim muammolar. Amortizatsiya siyosatining mahsulot tannarxini kamaytirishga ta'siri. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish, realizatsiya qilish va boshqa chiqib ketishlarining hisobi. Asosiy vositalar bo'yicha dastlabki hujjatlarni takomillashtirish. Asosiy vositalar analitik hisobining muammolari. Asosiy vositalarni ta'mirlash hisobi. Asosiy vositalar inventarizatsiyasi, uni natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Asosiy vositalarni ijaraga berish turlari, ularni ijarachi va ijaraga beruvchidagi hisobi. Ijara turlari. Ijara operatsiyalari hisobini takomillashtirish. Qishloq xo'jaligi texnikasini lizingga berish hisobi. Korxonalarni modernizatsiya qilish xarajatlari hisobi. Xo'jalik sub'ektlarini texnik va texnologik qayta jihozlash xarajatlari hisobi muammolari. Innovatsion faoliyat hisobini tashkil etish xususiyatlari.

1.3. Nomoddiy aktivlar hisobi

O'zbekistonda nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro tajribadan foydalanish (MHXS-38). Nomoddiy aktivlar haqida tushuncha, ularni guruhlash va baholash muammolari. Nomoddiy aktivlarni tan olish shartlari. Intellektual mulklarni baholash usullari. Nomoddiy aktivlarni qabul qilish va ularning harakatining hisobi. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya summasini hisoblash usullari va tartibi. Nomoddiy

aktivlarni hisobdan chiqarish, sotish va boshqa chiqib ketishlari hisobini takomillashtirish. Gudvillni hisobga olish tartibi.

1.4. Moliyaviy investitsiyalar hisobi

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS-32) asosida investitsiyalar hisobini tashkil etish masalalari. Moliyaviy investitsiyalar tushunchasining zamonaviy ta'rif, uning turkumlanishi va baholanishi. Aktsiyalarning bozor qiymati va real qiymatini buxgalteriya hisobida aks ettirish. Moliyaviy investitsiyalarning ayrim turlari baholanishidagi o'zgarishlar tartibi. Qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini tashkil etish usullari. Davlat va mahalliy zayom obligatsiyalari hisobi. Korxona, bank va boshqa emitentlar aktsiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar harakati hisobi. Xususiylar investitsiya fondlari haqida tushuncha va uning hisobi. Fond bozorlarida yirik kompaniyalar aktsiyalari harakatining hisobi muammolari. Aktsiyalar dividendlari hisobini yuritish tartibi.

1.5. Tovar-moddiy zahiralar (TMZ) hisobi

Tovar moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish va yuritish tartibi. TMZni hisobga olishda MHXS-2 ga asoslanish. TMZ tushunchasi, ularning turkumlanishi va ularni amaliyotda qo'llash muammolari. TMZning baholanishi. TMZni baholash usullari (FIFO, AVEKO). Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnomalari bo'yicha kelib tushadigan TMZni baholash va hisobga olish. TMZ bo'yicha egri xarajatlar va ularni taqsimlash tartibi. TMZni ishlab chiqarishga sarflanishi hisobi. TMZni sotish va boshqa chiqib ketishini hisobi. Inventar va xo'jalik jihozlari tushunchasi, turkumlanishi va ularni hisobga olish xususiyatlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida materiallarni almashtirish hisobi. TMZni davriy baholash va uni hisobga olishning xususiyatlari.

1.6. Mehnatga haq to'lash hisobi

Mehnatga haq to'lash bo'yicha me'yoriy xujjatlar tarkibini takomillashtirish masalalari. Mehnatga haq to'lash tizimlari va ularni takomillashtirish istiqbollari. Mehnat va ish xaqi bo'yicha rasmiylashtiriladigan dastlabki hujjatlar va ularni umumlashtirish tartibi. Ish vaqtidan foydalanish hisobini takomillashtirish. Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasini ishlab chiqish va uni takomillashtirish. Mehnat va ish xaqi sintetik va analitik hisobini takomillashtirish. Ish xaqidan ushlanmalar hisobini takomillashtirish tartibi. Ijtimoiy soliq bo'yicha hisoblashlar hisobini takomillashtirish. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobini takomillashtirish.

1.7. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hisobi

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlarni hisobga olish tartibi. Tayyor mahsulotni baholash muammolari. Jo'natilgan tovarlar, xizmat va bajarilgan ishlarni hisobi. Tayyor mahsulotni jo'natish bo'yicha hujjatlarni

rasmiylashtirish va uni takomillashtirish. Tayyor mahsulot bo'yicha analitik va sintetik hisobni yuritish. Mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar realizatsiyasi va uni belgilashning kassa xamda hisoblash (metodi) usullari. Hisoblash usulini qo'llashdagi muammolar. Tijorat xarajatlari hisobi. Tovar aylanmasi hisobi va uning muammolari. Savdo ustamasi hisobi. Konsignatsiya asosida amalga oshiriladigan operatsiyalar hisobi. Eksport-import operatsiyalarining hisobi. Komissiya bo'yicha tovarlarni sotish hisobini muammolari. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning buxgalteriya hisobi va valyuta almashuv kursidagi farqlarni aks ettirish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot va tovarlar eksporti va importini hisobini tashkil etilishi.

1.8. Pul mablag'lari hisobi

Korxonalarning xo'jalik aloqalari va hisob-kitob munosabatlari. Milliy valyutadagi pul mablag'lari hisobi. Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hisobi. Kassa operatsiyalarini yuritish tartibi. Hisob-kitob schyoti bo'yicha operatsiyalarning hisobi. Valyuta mablag'larining hisobi. Pul hujjatlari hisobi. Yo'ldagi pul mablag'lari hisobi. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar bo'yicha muammolar. Kurs tafovuti tushunchasi va uni buxgalteriya hisobida aks ettirish. Har xil debitor va kreditorlar bilan hisob-kitob, ular bo'yicha qarzdorlikni kamaytirishda buxgalteriya hisobining o'rnini va roli.

1.9. Majburiyatlar hisobi

Majburiyatlar hisobi bo'yicha buxgalteriya hisobi milliy standartlarini joriy etish muammolari. Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblar. Olingan va berilgan bo'naklar. Turli debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlarni buxgalteriya hisobida yuritish. Debitor qarzdorlikni baholash va uni moliyaviy natijalarga ta'siri. Da'volar va moddiy zararni qoplash yuzasidan hisoblashishlar hisobini takomillashtirish. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisoblashishlar hisobi. Ta'sischilar bilan hisoblashishlar hisobi. Filiallar va sho'ba korxonalar bilan hisoblashishlar hisobi. Qo'shma korxonalar faoliyati bo'yicha operatsiyalar hisobi. Umumdavlat soliqlari bo'yicha hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish. Mahalliy soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yagona soliq to'lovini hisobga olish xususiyatlari. Ijtimoiy infratuzilmaga ajratmalar hisobi mummolari. Majburiyatlar bo'yicha buxgalteriya hisobi milliy standartini ishlab chiqishning zaruriyati. Bank kreditlarining turlari va ularni hisobga olish tartibi. Bankning qisqa muddatli kreditlari hisobi bo'yicha muammolar. Bankning uzoq muddatli kreditlari hisobini takomillashtirish. Bank ssudalari bo'yicha foizlarni hisobga olish tartibi.

Qarz mablag'larining turlari va hisobga olish tartibini takomillashtirish. Qarzlarni bo'yicha foizlarni hisobga olish tartibi. Bank krediti foizlarini hisoblash va to'lash

tartibini hisobi. Tijorat banklari balansiga nochor korxona aktivlarini o'tkazish muammolari.

1.10. Moliyaviy natijalar hisobi

Moliyaviy natijalarning tashkil topishi, tuzilishi va shakllanish tartibi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy natijalarini aniqlash va uni hisobda aks ettirish. Boshqa sotishlardan ko'rilgan moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar hisobi. Investitsion faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar hisobi. Taqsimlanmagan foyda (zarar) bo'yicha operatsiyalar hisobi. Ulush va aktsiyalarga qo'yilgan daromadlar bo'yicha muassasalar bilan hisob-kitob bo'yicha muammolar. Boshqa aktivlar realizatsiyasi hisobi. Moliyaviy natijalarni hisobga oluvchi tranzit schyotlarni takomillashtirish masalalari.

1.11. Korxona o'z mablag'lari manbalarining hisobi

Aktsiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini shakllantirish muammolari. Ustav kapitali va qo'shilgan kapital hisobi. Rezerv kapitali hisobi. Xususiylashtirilgan korxonada ustav kapitali hisobi. Aktsiyadorlik kapitali hisobi muammolari. Ustav kapitaliga qo'yilgan ulushlar hisobi. Auktsion va tanlovda mulkni sotib olish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi. Boshqa korxonalardan tushgan mablag'lar hisobi. Davlat grant va subsidiyalari hisobi. Turli manbalar hisobidan moliyalashtirishlar hisobini takomillashtirish. Dividendlarni hisoblash usullari, ulardan foydalanish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish muammolari. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobini takomillashtirish.

1.12. Buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq yillik moliyaviy hisobot tuzishning asosiy tamoyillari va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni. Moliyaviy hisobot moddalarini baholash tartibining muammolari. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish. Moliyaviy hisobotning elementlari va ularni baholash tartibi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi. Moliyaviy holat to'g'risidagi (Buxgalteriya balansi) hisobot. Yalpi daromadlar to'g'risidagi (Moliyaviy natijalarni shakllantirish) hisobot. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. Xususiylashtirilgan kapital to'g'risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotlarga izoxlar, tushuntirish xatlari va ma'lumotnomalar. Aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida takomillashtirish. Statistika, moliya va soliq hisobotlarini elektron shaklida taqdim etish va uni takomillashtirish masalalari

1.13. Boshqaruv hisobi va uning kontsepsiyasi

O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimidagi printsiplari va yondoshuvlar. Boshqaruv hisobining buxgalteriya hisobi tizimida tutgan o'rnini. Xarajatlar bo'yicha hisob registrlarining yuritilishi. Xarajat markazlari va moddiy javobgarlik markazlari bo'yicha hisobni tashkil qilish tartibi. «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom va uning ahamiyati. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi, ularni tejash bo'yicha tashkiliy ishlarni hisobi, mahsulot tannarxini aniqlashni takomillashtirish. Unumsiz xarajatlar hisobi. Xarajat elementlari va ularning tavsifi, davr xarajatlari hisobini yuritish. Elektr va energiya resurslaridan foydalanishni hisobi va tejamkorlik bo'yicha bajariladigan ishlarni biznes-rejasini tashkiliy masalalari. Issiqlik energiyasini jahon standartlari darajasida qisqartirishning samarasini aniqlash va boshqaruv hisobida uning o'rnini. Mahsulot tannarxini kamaytirish yo'llari va ularning boshqaruv hisobiga ta'siri. Tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish xarajatlari hisobi muammolari. Ekologik xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish. Mahsulot tannarxini aniqlash usullari to'g'risida tushuncha. Tannarx aniqlashning oddiy, buyurtmalar, bosqichlar va normativ usuli va uni takomillashtirish bo'yicha izlanishlar. Tannarx aniqlashning "Direkt-kosting" usulining ta'rif. Mahsulot ishlab chiqarishda zararsizlik nuqtasini aniqlash. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari va ulardan foydalanish. Boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarini guruhlash tartibi. Boshqaruv xodimlari uchun buxgalteriya hisobi va uning ma'lumotlarining zaruriyligi va undan foydalanishning ahamiyati. Ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlar hisobini takomillashtirish. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining o'rnini. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish. Transfert bahoni shakllantirish muammolari. Korxonaning segmentar hisoboti. Investitsiya bo'yicha qaror qabul qilishida buxgalteriya hisobining ahamiyati. Boshqaruv hisobida logistik xarajatlar hisobini yuritish. Rekonstruktsiya xarajatlari hisobini yuritish. Boshqaruv hisobida strategik rejalashtirish. Boshqaruv hisobiga yo'naltirilgan yangi innovatsiyalar. Boshqaruv hisobini amaliy tashkil qilish muammolari.

1.14. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish masalalari. Tijorat banklari buxgalteriya hisobi tizimiga xalqaro modellar (Kontinental, Britan-amerika, Janubiyamerika)ning ta'siri. Tijorat banki hisobvaraqlar rejasini, uning asosiy bo'limlarining tavsifi. Tijorat banki analitik va sintetik hisobi. Tijorat banklarida boshqaruv hisobning mohiyati. Tijorat banki balansi va uning tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Balansning aktiv va passiv tomoniga ta'riflar va ushbu sohada izlanishlar. Bank hujjatlarining turlari

va turkumlanishini takomillashtirish. Kassa muomalalari bo'yicha hujjatlarning aylanishi, naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha muammolar. Ichki bank nazorati va ichki audit: ularning vazifalari va oralaridagi tafovut. Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi talablari va O'zbekistonda bank kapitali etarlicligini aniqlash muammolari. Bank kapitalining shakllanishi bo'yicha muomalalarni rasmiylashtirish va ularning hisobi. Bankning ustav kapitali, uning shakllanishining xususiyatlariga doir izlanishlar. Bank tizimini yanada mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshirish hamda investitsiyaviy faolligini kenaytirishda buxgalteriya hisobining roli.

1.15. Tijorat banki depozit operatsiyalari va berilgan qarzlarni hisobi

Tijorat banklarida yuridik va jismoniy shaxslarning turli xil depozit jamg'armalarining turlari, hisobga olish tartibi va uni rasmiylashtirilishi bo'yicha izlanishlar. Korxona, muassasa va tashkilotlarga berilgan qisqa muddatli kreditlarni hisobi va rasmiylashtirilishini takomillashtirish. Uzoq muddatli kreditlar hisobi. Mikrokreditlar hisobi. Berilgan qarzlarni bo'yicha hisoblangan foizlarning hisobi va rasmiylashtirilishi. Maqsadli va imtiyozli kreditlarning hisobi. Muddati o'tgan kreditlar va hisoblangan foizlarning hisobini takomillashtirish. Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari hisobini takomillashtirish yo'llari. Kredit portfeli tarkibini diversifikatsiyalash va uning hisobini yuritish muammolari. Tijorat banklari lizing operatsiyalari hisobini takomillashtirish yo'llari.

1.16. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalarini hisobi va rasmiylashtirilishi

Tijorat banklari tomonidan chiqariladigan aktsiya, obligatsiya, depozit va omonat sertifikatlari, veksellarni hisobga olish bo'yicha muammolar. Tijorat banklari nizom jamg'armasi o'zgarishini hisobi va uning muammolari. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishni hisobi. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha muomalalar nazoratini tashkil qilishni rasmiylashtirish va hisobga olish. Qimmatli qog'ozlarni qayta baholash va uni hisobda aks ettirish. Tijorat banklarini investitsion faoliyatini hisobi. Hisob-kitob va joriy schetlarni ochish, yuritish va yopish tartibi. To'lov-topshirig'i, to'lov-talabnomasi, akkreditiv vositasi hamda plastik kartochkalarda hisoblashishni rasmiylashtirish tartibi va hisobini yuritilishini takomillashtirish. Xorijiy investitsiyasini jalb qilishni buxgalteriya hisobida aks ettirish. Tijorat banklarining tashqi qarzlarni hisobi. Tijorat banklarida moliyaviy dastaklar hisobi.

1.17. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: ahamiyati va tavsifi

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro buxgalteriya standartlari asosida taqdim etish asoslari. “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish IAS-1”. Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot shakli va uning tuzilishi. Xalqaro moliyaviy hisobotlarni sharhlash qo'mitasining faoliyati. Hisob siyosatini tuzish. 8-son BHXS – “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar”. Hisob siyosatida buxgalteriya baholari va o'zgarishlarini hisobga olish. Kapitalizatsiya qilinadigan va qilinmaydigan xarajat moddalarini aniqlash va hisobga olish. Uzoq muddatli moddiy aktivlarga eskirish hisoblash usullari. Gudvilni hisobga olish. Sotib olingan va sotib olinmagan gudvil. Uzoq muddatli nomoddiy aktivlarni qayta baholash va hisobdan chiqarish hisobi. Sotish uchun muljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom etmaydigan faoliyat hisobi. Aktivlarni qadrsizlanishi. Aktivlarni qadrsizlanishini baholash va qayd etish jarayonlari. Tovar moddiy zahiralari hisobi. Tovar moddiy zahiralari hisobga olishda xarajatlar hisobi. Tovar moddiy zahiralari hisobga olishda xarajatlar hisobi. Sof fotish qiymat usulini mazmuni va uni hisobimi yuritish. Biologik aktivlar va ularni turkumlanishi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayd etish va baholash usullari. Davlat grantlari asosida tashkil etilgan biologik aktivlar hisobi. Haqqoniy qiymatda baholash manbalari. Haqqoniy qiymatni baholash uchun qo'llaniladigan usullar uchun ma'lumotlar ijarasi. Chet el valyutasidagi operatsiyalar hisobi. Funktsional valyuta tushunchasi va ularni hisobga olish. Moliyaviy hisobotlardagi tuzatishlar va hisobotlarni tuzish. Moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarni yoritib berish.

1.18. Byudjet hisobi va hisoboti

Byudjet hisobi ob'ektlarining iqtisodiy mazmuni. Moliya organlari, g'aznachilik va uning xududiy bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjet hisobini tashkil etishning uslubiy va me'yoriy-xuquqiy asoslari. Moliya organlari, g'aznachilik va uning xududiy bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjet hisobida qo'llaniladigan hisob xujjatlari va registrlari hamda hisobvaraqlar. Byudjet hisobining axborot tizimlari va ulardan foydalanish. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari, xarajatlari hisobining maqsadi va vazifalari. G'azna ijrosi sharoitida davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari va xarajatlarning ijrosi hisobi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari va xarajatlarni buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari va hisob registrlarida aks ettirish. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari va xarajatlarning analitik va sintetik hisobi. Byudjet ssudalari, uning byudjet ijrosi jarayonidagi ahamiyati. Byudjet ssudalari hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet ijrosi jarayonida byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashlar hisobi. Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha byudjet ijrosi davrida

yuzaga keladigan o'zaro hisoblashishlarning hisobi. Byudjet ssudalari va byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashishlarni hisobning axborot tizimlarida aks ettirish. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi bo'yicha natijalarni aniqlash tartibi. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi bo'yicha davriy hisobotlarni shakllantirish. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarning axborot imkoniyatlari. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil qilishning maqsadi va vazifalari. Byudjet tashkilotlarida yuritiladigan hisob shakllari. Byudjet tashkilotlarida smetalar ijrosi hisobi bo'yicha foydalaniladigan hisob hujjatlari, ularning tayinlanishi, rasmiylashtirish texnikasi va tartibi. Sintetik va analitik hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil etishda axborot tizimlari. Byudjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi va ularni tuzish tartibi. Byudjet tashkilotlarida shtatlar jadvalini tuzishning hususiyatlari. Byudjet mablag'lari bo'yicha smeta xarajatlarini tuzish tartibi va ularni ijrosi hisobi. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasini tuzish va ular ijrosi hisobining hususiyatlari. Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlar hisobini tashkil etishning maqsadi va vazifalari. Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni kirim qilinishi hamda hisobdan chiqarilishi hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarning eskirish hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobi. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalarni baholanishi va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini yuritishda hisobning axborot tizimlari. Byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralari hisobini tashkil etishning maqsadi, vazifalari. Byudjet tashkilotlarida material qiymatliklarning sotib olinishi va sarflanishi hisobi. Hisobvaraqlardagi byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining maqsadi va vazifalari. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yuritish tartibi. SHaxsiy hisobvarqalardagi byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning analitik va sintetik hisobi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha hisobvaraqlarni yopish tartibi. Byudjet tashkilotlarida kassa operatsiyalari hisobini tashkil etish. Kassa operatsiyalari bo'yicha hisob xujjatlarini yuritish va kassa hisobotini shakllantirish. Kassa muomalalarini hisobvaraqlar va hisob registrlarida aks ettirish. Boshqa pul mablag'lari hisobi. G'azna ijrosi sharoitida byudjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazish. Byudjet tashkilotlarida mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Boshqa turli debitor va kreditor majburiyatlar bo'yicha hisoblashuvlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida xizmat safari xarajatlari bo'yicha hisobdor shaxslar bilan hisoblashuvlar. Kamomadlar bo'yicha hodimlar bilan hisoblashuvlar hisobi. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga haq to'lash hisobini tashkil etish hamda uning vazifalari. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobi.

Stipendiya to'lovlari, pensiya va nafaqalar bo'yicha to'lovlar hisobi. Ish haqiga nisbatan majburiy ushlanmalar hisobi. Byudjet tashkilotlarida mehnat haqi bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovlar hisobi.

1.19. Korxonalarni soliqqa tortish va uning hisobi.

Yuridik shaxslar daromadlari (foydasini)ni soliqqa tortish hisobi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va uning hisobini takomillashtirish. Aktsiz solig'i, uni hisoblash tartibi va buxgalteriya hisobida aks ettirish. Mulk solig'i va uni takomillashtirish muammolari. Tabiiy boyliklardan foydalanganlik solig'i muammolari. Kichik biznes korxonalari uchun soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi va uning hisobini takomillashtirish. Mahalliy soliqlar va ularning hisobini takomillashtirish. Yagona yer solig'i hisobi muammolari. Boshqa umumdavlat soliqlari hisobi sohasidagi izlanishlar. Boshqa majburiy to'lovlar hisobini takomillashtirish. Soliq va bojxona imtiyozlarining buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari.

II BO'LIM. IQTISODIY TAHLIL

2.1. Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari

